

Hashar elga yarashar

Xalqimizda dunyoning boshqa xalqlari o'rganadigan, havas qilsa arziydigan qadriyatlar, urf-odatlari talaygina. Shulardan biri - bu hashar. Necha yuz yillardan buyon davom etib kelayotgan ushbu an'anaga ko'ra tozalik, ozodalik, ko'cha-xiyobonlarni obod qilish, daraxtlarga ishlov berish, atrof-muhitni ozoda-sarishtaligini ta'minlash kabi ishlar bajariladi.



2021-yil 13-mart "Umumxalq xayriya hashari" kuni munosabati bilan Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Buxoro filiali hududida epidemiologik osoyishtaligini saqlash, sog'lom turmush tarzi va sanitariya-gigiyenik madaniyatni targ'ib qilgan holda professor-o'qituvchilar tomonidan obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari yuqori kayfiyatda davom etmoqda.



TIQXMMI matbuot xizmati